

## O‘ZBEKISTONDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

**B.B. Jahongirov**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport  
Universiteti dotsenti

**D.R. Amriyeva**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport  
2-kurs magistranti

### ABSTRACT

Ushbu maqolada mamalakatimizda jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish uchu qabul qilingan qonun va qonun osti xujjatlar mamlakatimizda sport bilan shug‘ullanuvchilar soni keskin ortgani hamda bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanganlik ko‘rsatkichlari, salomatlik darajalari sezilarli tarzda yaxshilangani va sportchilarimizning O‘zbekiston sharafigi jahon sport maydonlarida, Osiyo, jahon chempionati va Olimpiya o‘yinlarida munosib himoya qilishga qodir bo‘lgan xalqaro darajadagi sportchilarni tayyorlash bo‘yicha samarali tizimni yaratish, yuqori malakali murabbiy o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash haqida fikr yuritilga.

**Kalit so‘zlar:** Qonun, qaror, farmon, sport, jismoniy madaniyat, xujjat, sportchi, xalqaro, Osiyo, Olimpiya, kadr, musobaqa, bolalar sporti, ayollar sporti.

### ABSTRACT

In this article, the law and regulations adopted for the development of physical culture and sports in our country show that the number of athletes in our country has increased dramatically, and the indicators of physical development and health of children and adolescents have increased significantly. the promotion and honor of our athletes in world sports. to think about creating an effective system for training international-level athletes who are able to adequately defend themselves on the fields, Asian, World and Olympic Games championships, training highly qualified coaches and teachers.

**Key words:** Law, decision, decree, sport, physical culture, document, athlete, international, Asian, Olympic, personnel, competitions, children’s sports, women’s sports

Mamlakatimiz istiqloлга erishgan dastlabki kunlardan boshlab jismoniy madaniyat va sport sohasiga yuksak e'tibor qaratilib kelinmoqda. Hatto jismoniy madaniyat va sport davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish, sport turlarining ommaviyligini oshirish va professional sportni yanada yuqori cho'qqilarga chiqarish ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Bu kabi vazifalarni hal etishda davlat rahbari va hukumat tomonidan qator Qonun va Qarorlar qabul qilinib va ko'plab Farmonlar chiqarildi. Jumladan, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun, (1992, 2000, 2015 yillar), shuningdek birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 2000 yilda "O'zbekistonda "Uch bosqichli" ("Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada") musobaqalar tizimini joriy etish to'g'risida" gi Qarori asosida mamlakatimizda ta'lim muassasalari o'rtasida har ikki yilda uch dosqichli sport musobaqalari o'tkazilib kelindi. [1]

2002 yil 24 oktyabrda O'zbekiston Prezidentining "O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi, Farmoni, "Qishloq joylardagi bolalar sporti ob'ektlarida band bo'lgan ayol sport ustozlari mehnatini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2003 yil 3 iyundagi "O'quvchi talaba-yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida"gi 244-sonli Qarori va 2004 yil 29 avgustdagi "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirishda muhim dastur bo'lib xizmat qilib sportni ommaviylashishiga katta o'rin egalladi. [2]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 fevraldagi "2016 yil Rio-de-Janeyro (Braziliya)da bo'lib o'tadigan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlari hamda XV Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini tayyorlash to'g'risida" gi PQ-1923 sonli Qarori yto'g' ri bajarilgani sabab Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tadigan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlari hamda XV Paralimpiya o'yinlarida Yurtimiz sportchilari 13 ta medal ulardan 4 oltin bilan umumijamoa hisobida 21-o'rin egallagan bo'lsa, paraolimpiyachilarimiz tomonidan 31 ta medal ulardan 8 tasi oltin medal bilan 17-o'rinni egallashdi. [3]

Mustaqillikning dastlabki yillarida jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanuvchilar umumiy aholining 32-35 %ini tashkil etgan bo'lsa, bugunga kelib bu ko'rsatkich 71-73%ga ko'tarilganini kuzatamiz. [4]

Keyingi yillarda keng ko'lamdagi iqtisodiy, ijtimoiy, maishiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlarni izchil joriy etish, bolalar sportini tizimli asosda rivojlantirish bo'yicha amalga oshirgan ishlarimiz natijasida bugungi kunga kelib sport bilan shug'ullanadigan 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarimiz o'rtasida o'tkir respiratorli virusli infeksiyalar bilan kasallanish 47,3 foizga, pnevmoniya bo'yicha 55,6, bronxit bo'yicha 61,7, skolioz bo'yicha 45,5 foizga kamaygani biz erishgan eng

muhim natija sifatida albatta barchamizni quvontiradi. Bunday ijobiy o‘zgarishlarni har qaysi ota-ona o‘z oilasi, o‘z farzandlari misolida ko‘rib, sportning bu boradagi ta‘siri va ahamiyatini tobora chuqur anglab etmoqda. [5]

Xususan, qiz bolalarni ommaviy sportga jalb etish borasidagi amaliy ishlarimiz haqida ham alohida to‘xtalib o‘tish zarur. Bu ko‘rsatkichlar 2005 yilda 24 foizni, jumladan, qishloq joylarda 22 foizni tashkil etgan, xolos. Bugungi kunda qiz bolalarning 47 foizi, qishloq joylarda esa 44,7 foizi sport bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqda.[6]

2015 yil 4 sentyabrda yangi qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi hamda mazkur qonunda jismoniy tarbiya va sportning barcha jabhalari qamrab olinganligi sohaning huquqiy asoslari rivojlanishini belgilab berish bilan birga, yoshlarni sport bilan shug‘ullanishga faol jalb etish, bolalar sporti ob‘ektlari uchun yuqori malakali, professional kadrlarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib kelmoqda. [7]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 martdagi “O‘zbekiston sportchilarini 2020 yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-2821 sonli, 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli hamda 2017 yil 2 oktyabrdagi “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3306-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 maydagi “O‘zbekistoan davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 331-sonli qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 yanvardagi “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘rsida”gi 6-sonli qarorlari, 2020 yil 4 noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4881-sonli qarorlari, 2021-yil 5-noyabrdagi “YUrish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va «workout» sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5282-son Qarorlari O‘zbekistonda sportni rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda.[8]

Natijada mamlakatimizda zamonaviy talablarga javob beradigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning strategiyasi va uni isloh qilishning amaliy yo‘nalishi ishlab chiqilishi rivojlanishi ta‘minlanmoqda. Ushbu huquqiy qarorlar va tadbirlar doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida mutaxassislarni tayyorlashga, sohadagi muammolarni bartaraf etib borishda qo‘l kelmoqda.[9]

Xulosa qilib aytganda, bugun mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sport ishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Jismoniy tarbiya va sport ishlari davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Uning yuksalib borayotgan o'rni va ahamiyatini yoshlar qalbi va ongiga singdirish, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan jismonan sog'lom, bilimli va yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunda oldimizda turgan eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

- 1.O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kyengashining navbatdagi yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2016 yil 11 fevral.
- 2.O'zbekiston Ryespublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2015y., 47-son, 595-modda. "Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish to'g'risida"gi 2438-sonli qarori. 2015 yil 23 noyabr
- 3.Jahongirov B.B. O'zbekistonning hindiston bilan ilmiy - texnikaviy aloqalari. Academic research in educational sciences.Issn 2181-1385 volume 3, issue 5 may, 2022./05.-B.1058
- 4.Jahongirov B.B. O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan ilmiy – texnikaviy hamkorligi (ilmiy-tadqiqot institutlari misolida). Oriental renaissance: innovative, education, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, issue 5/2,may 2022 -B.825
5. Jahongirov B.B. O'zbekiston fanlar akademiyasining xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy - texnikaviy aloqalari. QarDU xabarlaril Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. Maxsus son (Ijtimoiy fanlar). -Qarshi.2020.-B.256
- 6.Jahongirov B.B. O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan ilmi-texnikaviy aloqalari. O'tmishga nazar jurnali jurnal vzglyad v proshloye, journal of look to the past. 2021.2-son. 4- jild. -B.18
7. Jahongirov B.B. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan ilm-fan sohasidagi hamkorlik aloqalari. Academic research in educational science. Volume 2 | special issue 2 | 2021 /02; -B. 987
- 8.Xalq so'zi. 2015 yil 15 sentabr
9. Abdullayev A., Xonkyeldiyev SH.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. Toshkyent, 2005.-B.251